Ingliz tili darslarida madaniyatlararo kommunikatsiya va axborot almashish kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv usullar	648
Olimxon Isaqov Odiljanovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy texnologiyalari	652
Rustamjonov Shoxruxbek Akmaljon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlashda fiziologik rivojlanish va biologik atamalarning qo'llanilish xususiyatlari.....	656
Ruziyeva Gulsara Temirqulovna	
STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	662
Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bolalarda mantiqiy va ijodiy rivojlanishni kengaytirish	665
N. O. Saidova, Tojaliyeva Shahrizoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faoliyatini jismoniy vositalari orqali optimallashtirish masalalari	669
Sarimsaqova Bashorat Muhammad qizi	
Talabalarni axborot ta'lim muhitida kasbiy kompetentligini boshqarishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	673
Shoimov Anvar Mamarizayevich, Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shodiyeva Guliston Temirovna	

Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda pedagogik metod va o'yinlarning samaradorligi	677
Suyarova Orzigul Sodiq qizi	
Ta'lim jarayonida talabalardagi stress holatlarini bartaraf etishning psixologik xususiyatlari.....	681
Toshpulatov Akmal A'zamjon o'g'li, Dumarov Mashhurbek	
Maktabgacha ta'lim faoliyat markazlarida ta'lim jarayonini davlat dasturi asosida modernizatsiya qilish ...	685
Ubaydullayeva Ra'no Furqat qizi	
The Role of STEAM Technologies in Teaching English.....	689
Umida Raimjanovna Irgasheva	
Talabalar mobilligi jarayonida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	693
Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari o'rtasida metodik kollaboratsiyani boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasi va unda qo'llaniladigan metodlar	698
Xamrayeva Gulnoz Israilovna	
Migratsiya sharoitida yoshlar tarbiyasi: pedagogik risklar va ularning kelib chiqish sabablari	704
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Отношение к телу и фитнес-практикам как фактор социально-психологического благополучия женщин	708
Дехконбоева Зулайхо Дилшод қизи	
Masofaviy o'qitish kompetensiyasi uchun shart-sharoitlarning samaradorligini tekshirish bo'yicha eksperimental ish.....	712
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Xalikov Abdulxaq Abdulxairovich	
Masofaviy ta'limning oxirgi besh yil davridagi rivojlanish bosqichlarining tahlili.....	719
Musamedova Kamola Abdulxaqovna, Ibragimova Ozoda Abdulxakovna	
Информированность педагогов ДОО о психофизиологических особенностях и здоровье детей в инклюзивном образовательной среде	723
Намазбаева Лола Закировна	



INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARASINI OSHIRISH UCHUN XALQARO TAJRIBADAN FOYDALANISH

Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti yo'nalishi
mustaqil tadqiqotchi

ORCID:0009-0008-7054-523X

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribaning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Hozirgi globalashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - barcha bolalar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Tadqiqotda rivojlangan davlatlar, xususan, Finlandiya, Kanada, Italiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida inklyuziv yondashuvni joriy etish mexanizmlari o'rganiladi. Ushbu mamlakatlarda pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual ta'lim dasturlari, multidissiplinar mutaxassislar jamoasi hamkorligi hamda moslashtirilgan o'quv muhitining yaratilishi asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada inklyuziv ta'limni tashkil etishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ota-onalar bilan hamkorlik, ijtimoiy moslashuv jarayonlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari inklyuziv muhitni shakllantirishda tizimli yondashuv, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va amaliy metodikalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Maqola xulosasida xalqaro tajriba asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va barcha o'quvchilarning to'liq rivojlanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, xalqaro tajriba, maxsus ta'lim ehtiyojlari, teng imkoniyat, pedagogik qo'llab-quvvatlash, individual ta'lim dasturi, moslashtirilgan muhit.

Abstract: This article examines the role of international experience in improving the effectiveness of inclusive education. In the context of globalization, one of the key priorities of modern education systems is to ensure equal learning opportunities for all children, including students with special educational needs. The study analyzes the practices of countries such as Finland, Canada, Italy, and South Korea, where inclusive education has been successfully integrated into mainstream schooling. Special attention is given to mechanisms such as individualized education programs, professional pedagogical support, collaboration among multidisciplinary specialists, and the creation of adaptive learning environments. The article highlights the importance of teacher training, cooperation with parents, social integration processes, and the use of modern pedagogical technologies in organizing inclusive education. Furthermore, it discusses potential challenges in adapting international practices to national educational contexts and suggests ways to overcome them. The findings emphasize that a systematic approach, improvement of the legal and regulatory framework, and the implementation of effective teaching methods are essential for building a sustainable inclusive environment. The conclusions underline that the application of international experience contributes to enhancing the quality of inclusive education, ensuring social equity, and supporting the full development and participation of all learners in the educational process.

Key words: inclusive education, international experience, special educational needs, equal opportunity, pedagogical support, individualized education program, adaptive environment.



Аннотация: В данной статье анализируется значение международного опыта в повышении эффективности инклюзивного образования. В условиях глобализации одной из важнейших задач современной системы образования является обеспечение равных возможностей для обучения всех детей, включая учащихся с особыми образовательными потребностями. В исследовании рассматривается опыт таких стран, как Финляндия, Канада, Италия и Южная Корея, где инклюзивный подход успешно внедрён в систему общего образования. Особое внимание уделяется индивидуальным образовательным программам, профессиональной педагогической поддержке, сотрудничеству междисциплинарных специалистов и созданию адаптированной образовательной среды. В статье раскрывается роль подготовки учителей, взаимодействия с родителями, процессов социальной адаптации и использования современных педагогических технологий в организации инклюзивного обучения. Также анализируются возможные трудности при адаптации международного опыта к национальной образовательной системе и предлагаются пути их преодоления. Результаты исследования показывают, что для формирования устойчивой инклюзивной среды необходимы системный подход, совершенствование нормативно-правовой базы и широкое внедрение эффективных методик обучения. В заключении подчёркивается, что использование международного опыта способствует повышению качества инклюзивного образования, обеспечению социальной справедливости и всестороннему развитию каждого обучающегося.

Ключевые слова: инклюзивное образование, международный опыт, особые образовательные потребности, равные возможности, педагогическая поддержка, индивидуальная образовательная программа, адаптированная среда.

Kirish

Inklyuziv ta'lim bu - barcha o'quvchilarga ularning qobiliyatlari, ijtimoiy holati yoki maxsus ehtiyojlaridan qat'i nazar teng huquq va imkoniyatlar asosida sifatli ta'lim olishni ta'minlovchi yondashuvdir. Bu tamoyil BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham belgilanganidek, "har bir insonning ta'lim olish huquqi"ni amaliyotda amalga oshirishga qaratilgan asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim shundaki, o'quvchi tizimga moslashishi emas, balki ta'lim muhitini o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirish orqali har bir insonning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu yondashuv diskriminatsiyani kamaytirib, ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Global darajada ta'limga kirish va qatnashuv bo'yicha ham sezilarli statistik tafovutlar mavjud. UNESCO 2020-yilgi Global Education Monitoring Report ma'lumotlariga ko'ra, taxminan 258 million bola, yoshlar va o'spirinlar tizimli ta'limdan chetda qolmoqda, bu butun dunyodagi ta'lim qatnashuvining 17 foizini tashkil qiladi. Biroq eng chuqur tafovutlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan oilalar o'rtasida kuzatiladi ^[14].

Inklyuziv ta'limning xalqaro tajribasi shuni ko'rsatadiki, ilg'or ta'lim tizimlariga ega bo'lgan davlatlar inklyuziv yondashuvni joriy etishda o'ziga xos strategiyalarni ishlab chiqqan. Masalan, Fransiya 2012-yildan buyon nogiron o'quvchilarning maxsus muassasalarga yuborilishi istisno holatga aylangan va deyarli barcha nogiron o'quvchilar umumiy maktablarda o'qitiladi, shu bilan birga o'qituvchilarga inklyuziv pedagogika bo'yicha maxsus treninglar beriladi.

Shuningdek, Xalqaro institutlar va xalqaro tashkilotlar inklyuziv ta'limni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha ko'plab global tashabbuslar bilan shug'ullanmoqda. UNESCOning IIEP inclusive education dasturi qamrab olmagan bolalar, yoshlar va ularning oilalariga yordam ko'rsatish, ta'lim rejalashtirish jarayonlarida inklyuziyani markazga qo'yish yo'nalishida texnik va strategik ko'mak beradi. Ular ta'lim tizimidagi cheklovlarini aniqlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va jamiyatda inkluzivlikni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshiradi.

Biroq global darajada inklyuziv ta'limni amalga oshirishda muammolar ham mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda ta'lim qonunlari faqat nogironlik bo'yicha guruhlarni qamrab oladi, ammo barcha diskriminatsiya guruhlari inklyuziyaga kiritish bo'yicha kompleks yondashuv mezonlari kam uchraydi. UNESCO hisobotida qayd etilishicha, faqat 10 foiz mamlakatlarda inklyuziv ta'lim yuridik jihatdan barcha o'quvchilarni qamrab oladi, qolgan davlatlarda esa qonun va siyosatlar odatda alohida guruhlarga yo'naltiriladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda eng muhim omillardan biri - o'qituvchilarning malakali tayyorlanishi va qo'llab-quvvatlanishi. O'qituvchilarning inklyuziv yondashuv bo'yicha bilim va ko'nikmalari bo'lmasa, maktab muhitida inklyuziya prinsiplari muvaffaqiyatli tatbiq qilinmaydi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik tizimini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro tajriba asosida inklyuziv ta'limni amalga oshirish milliy ta'lim tizimlariga moslashtirilganda, bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ularga moddiy-texnik baza, o'qituvchi tayyorlash, o'quvchi ehtiyojlarini aniqlash tizimi va ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kiradi. Shu sababli xalqaro standartlar hamda ilg'or davlatlarning ilg'or tajribalari asosida milliy siyosat va strategiyalar ishlab chiqilishi muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham sifatli va inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha yirik xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Masalan, UNICEF va boshqa xalqaro hamkorlar bilan 19,2 million AQSh dollar qiymatidagi SmartED loyihasi O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv va kompetensiyaga asoslangan ta'limni

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan holda amalga oshirilmoqda. Bu tashabbus mamlakat bo'ylab barcha bolalarga zamonaviy, inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi ^[13].

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajriba muhim o'rinni egallaydi. Xalqaro hujjatlar, yetakchi davlatlar tajribalari va global statistik ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar milliy ta'lim tizimlarida inklyuziyani mustahkam joriy etish hamda barcha o'quvchilarga sifatli ta'lim berish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim masalasi so'nggi o'n yilliklarda xalqaro miqyosda keng o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. UNESCO, UNICEF, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar inklyuziv ta'limni barqaror rivojlanish maqsadlari bilan bevosita bog'liq ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi. Xorijiy adabiyotlarda inklyuziv ta'lim asosan inson huquqlari, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar konsepsiyasi doirasida o'rganiladi.

Masalan, Ainscow, Booth va Dyson (Buyuk Britaniya) inklyuziv ta'limni maktab tizimini transformatsiya qilish jarayoni sifatida ko'rib, muammo bolada emas, balki ta'lim tizimining o'zida ekanini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, maktab muhitini moslashtirish, o'quv dasturlarini differensiallashtirish va o'qituvchilarning refleksiv amaliyoti asosiy omil hisoblanadi. Muallif ushbu qarashlarni qo'llab, ular xorijiy tajribada inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda asosiy yo'nalishlar sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Yevropa va Shimoliy Amerika tadqiqotchilari, jumladan Florian (Buyuk Britaniya), Black-Hawkins (Buyuk Britaniya) va Tomlinson (Kanada), inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining muhimligini ko'rsatadilar. Masalan, Finlandiya tajribasida uch pog'onali qo'llab-quvvatlash modeli (umumiy, kuchaytirilgan va maxsus yordam) o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va mos ta'lim strategiyasini tanlashda samarali mexanizm sifatida baholanadi. Kanada va Italiyada olib borilgan tadqiqotlar multidissiplinar jamoaning - o'qituvchi, psixolog, logoped, ijtimoiy pedagog - hamkorligi inklyuziv muhitning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda ota-onalar bilan hamkorlik, ijtimoiy moslashuv va maktab madaniyatini o'zgartirish masalalari ham keng yoritilgan ^[12]. Muallif bu tadqiqotlarni tahlil qilib, ularning ayrim elementlarini mahalliy maktab sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Osiyo mamlakatlaridagi tadqiqotlar esa inklyuziv ta'limni joriy etishdagi tizimli to'siqlarga e'tibor qaratadi. Masalan, Janubiy Koreya va Singapur tajribasini o'rgangan tadqiqotchilar moddiy-texnik baza yetishmasligi, o'qituvchilarning maxsus tayyorgarligi pastligi va jamiyatdagi nogironlikka nisbatan stereotiplarning inklyuziya jarayonini sekinlashtiruvchi omillar ekanini qayd etadilar. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash kuchli bo'lsa, inklyuziv ta'limning amaliy natijalari yuqori bo'lishi isbotlangan. Muallif ushbu holatlarni solishtirish orqali mahalliy sharoitda inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun strategik yo'nalishlar belgilaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda inklyuziv ta'lim nisbatan yangi yo'nalish sifatida shakllanmoqda. O'zbekistonlik olimlar, jumladan Xolmatov (2020), Rajabova (2019) va Islomova (2021), inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim maktablariga integratsiya qilish masalalarini yoritadilar. Ayrim ishlarda o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish, pedagogik sharoitlarni yaratish va differensial yondashuvning ahamiyati ta'kidlanadi. Biroq mahalliy tadqiqotlarda xorijiy tajribalar ko'pincha umumiy tavsif darajasida keltiriladi va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish mexanizmlari chuqur tahlil qilinmaydi. Amaliy modellar, aniq metodik tavsiyalar va samaradorlik ko'rsatkichlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan ^[7].

Shu jihatdan mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, unda inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish masalasi aynan xalqaro tajriba misolida tizimli ravishda tahlil qilinadi va ularni milliy sharoitga moslashtirish yo'llari asoslab beriladi. Muallif ishida xorijiy modellar shunchaki tavsiflanmaydi, balki ularning qaysi elementi mahalliy maktab amaliyotiga real tatbiq etilishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari, tadqiqotda inklyuziv ta'limni faqat pedagogik jarayon emas, balki ijtimoiy, tashkiliy va boshqaruv tizimi bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqish muallif yondashuvining muhim farqli jihati hisoblanadi. Shu orqali ish mavjud adabiyotlarni to'ldiradi va inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifat jihatdan tahliliy, taqqoshlovchi va amaliy yo'naltirilgan usullarning uyg'unligiga asoslanadi. Avvalo, mavzuga oid nazariy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy tadqiqotlar kontent-tahlil usuli orqali o'rganildi. Bu jara-



yonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid konsepsiyalar, modelllar va strategiyalar tizimli ravishda saralab olindi.

Tadqiqotda taqqoshlama tahlil usuli muhim o'rin tutdi. Finlandiya, Kanada, Italiya va Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasi o'rganilib, ularning inklyuziv ta'limni tashkil etishdagi yondashuvlari o'zaro solishtirildi. Bunda o'qituvchilarni tayyorlash tizimi, pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, individual ta'lim dasturlari hamda moslashtirilgan o'quv muhiti asosiy mezon sifatida olindi. Taqqoshlash natijasida samaradorlikka ta'sir etuvchi umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida inklyuziv ta'lim pedagogik jarayon bilan bir qatorda tashkiliy, ijtimoiy va boshqaruv omillari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Tadqiqotda umumlashtirish va mantiqiy xulosalash metodlari orqali xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirish bo'yicha nazariy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi [5].

Empirik jihatdan esa mavjud ilmiy ma'lumotlar, statistik ko'rsatkichlar va amaliy tajribalar ikkilamchi ma'lumotlar sifatida tahlil qilindi. Bu esa tadqiqotning dalillarga asoslanganligini ta'minladi. Natijada qo'llanilgan metodlar inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida o'rganilgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim samaradorligi birgina pedagogik jarayonga emas, balki butun ta'lim tizimining moslashuvchanligiga bog'liq. Tahlillar natijasida inklyuziya muvaffaqiyatli amalga oshirilgan mamlakatlarda bir nechta o'zaro bog'liq omillar barqaror ishlashi aniqladi. Eng avvalo, ta'lim siyosatida inklyuzivlik ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, normativ-huquqiy baza barcha o'quvchilarning teng ishtirokini kafolatlaydi. Bu holat inklyuziv jarayonni alohida loyiha emas, balki tizimli islohot sifatida shakllantiradi.

Taqqoshlama tahlil shuni ko'rsatdiki, Finlandiya va Kanada tajribasida o'quvchilarga erta pedagogik yordam ko'rsatish mexanizmi yuqori natija beradi. O'quvchining qiyinchiligi chuqurlashib ketishini kutmasdan, dastlabki bosqichda qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishi o'zlashtirish darajasini barqaror saqlashga yordam beradi. Bu yondashuv natijasida o'quvchilarni alohida maxsus muassasalarga ajratish zarurati kamayadi va ijtimoiy integratsiya kuchayadi. Italiya tajribasida esa barcha bolalarning umumiy maktabda ta'lim olishi tamoyili ijtimoiy tenglikni mustahkamlashda muhim natija bergan. Maktab jamoasining inklyuziv madaniyatga ega bo'lishi o'quvchilarning o'zaro hurmat va hamkorlikda rivojlanishiga olib keladi.

Tahlillar yana shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi inklyuziv ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir etadi. Xorijiy tajribada o'qituvchilar nafaqat predmet bilimiga, balki differensial yondashuv, moslashtirilgan baholash va psixologik qo'llab-quvvatlash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi talab etiladi. Bu omil ta'lim sifati pasaymasdan turib, turli ehtiyojli o'quvchilarni bir sinfda o'qitish imkonini beradi. Mahalliy amaliyotda esa aynan shu yo'nalishda ehtiyoj yuqoriligi kuzatildi, ya'ni o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish samaradorlikni oshirishning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ldi.

Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, inklyuziv muhitni yaratishda multidissiplinar hamkorlik muhim o'rin tutadi. Psixolog, logoped, ijtimoiy pedagog va sinf rahbarining hamkorlikdagi faoliyati o'quvchining rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlaydi. Bunday yondashuv qo'llanilgan maktablarda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o'ziga bo'lgan ishonchi va o'qishga qiziqishi ortgani kuzatiladi. Demak, inklyuziv ta'lim samarasi faqat akademik natijalar bilan emas, balki ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan ham belgilanadi [6].

Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, xalqaro tajribada inklyuziv ta'lim samaradorligi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: ta'limga qamrov kengayishi, o'zlashtirish ko'rsatkichlarining barqarorlashuvi va ijtimoiy integratsiyaning kuchayishi. Ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali inklyuziv ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonida tenglikni ta'minlash va har bir o'quvchining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etadigan murakkab pedagogik hamda ijtimoiy jarayondir. Xalqaro tajriba tahlili asosida aniqlanishicha, inklyuziv ta'lim muvaffaqiyati ta'lim siyosati, o'qituvchilar malakasi, pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi hamda maktab muhitining moslashuvchanligi bilan bevosita bog'liq. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni isbotladiki, inklyuziya alohida loyiha sifatida emas, balki butun ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi sifatida tashkil etilgandagina barqaror natija beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, erta aniqlash va erta pedagogik yordam ko'rsatish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini barqaror saqlashda muhim rol o'ynaydi. Individual ta'lim dasturlari, differensial yondashuv va moslashtirilgan baholash tizimi o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ta'lim berish imkonini yaratadi. Shu bilan



birga, multidissiplinar mutaxassislar hamkorligi o'quvchilarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ham ta'minlaydi. Inklyuziv muhit shakllangan maktablarda o'quvchilarning o'zaro hurmati, ijtimoiy faolligi va ta'limga motivatsiyasi yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Mahalliy ta'lim tizimi uchun eng dolzarb masala - inklyuziv ta'limni joriy etishda amaliy mexanizmlarni kuchaytirishdir. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va ularni doimiy metodik qo'llab-quvvatlash inklyuziv ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartidir. Faqat nazariy bilim emas, balki amaliy ko'nikmalar, moslashtirilgan dars tashkil etish, turli ehtiyojli o'quvchilar bilan ishlash strategiyalarini egallash zarur.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Avvalo, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlariga inklyuziv pedagogika modullarini majburiy kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, maktablarda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish va mutaxassislar jamoaviy ishlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Uchinchidan, o'quv dasturlari va baholash tizimini moslashtirish orqali individual ta'lim yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash lozim.

To'rtinchidan, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish inklyuziv jarayonning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini moslashtirish ham inklyuziv muhitni yaratishning muhim shartidir.

Umuman olganda, xalqaro tajribaga tayangan holda inklyuziv ta'limni rivojlantirish barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyat yaratish, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Inklyuziv yondashuvni izchil joriy etish kelajakda jamiyatning ijtimoiy birligi va barqaror taraqqiyotiga mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova, D. (2021). Inklyuziv ta'limning psixologik-pedagogik va tashkiliy shartlari. Toshkent.
2. Bozorova, M. (2020). Maxsus pedagogika asoslari va inklyuziv yondashuv. Fan va texnologiya.
3. Hoshimova, M. M. (2022). Maxsus va inklyuziv ta'lim: Xalqaro va milliy tajribalar. Toshkent.
4. Isanova, M. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida individual dasturlar asosida o'qitish. Toshkent.
5. Karimova, D. (2023). Inklyuziv ta'limda differensial yondashuv metodikasi. Innovatsion rivojlanish nashriyoti.
6. Mahmudova, Z. (2020). Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim. Toshkent.
7. Nasriddinova, M. Sh. (2022). O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari. Ilmiy maqola.
8. Qodirova, S. (2023). Umumta'lim maktablarida inklyuziv muhitni shakllantirish omillari. Toshkent.
9. Raximova, N. (2021). Inklyuziv ta'limda o'qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish masalalari. Samarqand.
10. Saidova, G. (2022). Inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari. Toshkent.
11. Tursunova, L. (2020). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikasi. Toshkent.
12. UNESCO. (1994). The Salamanca statement and framework for action on special needs education. UNESCO.
13. UNESCO. (2009). Policy guidelines on inclusion in education. UNESCO.
14. UNICEF. (2017). Inclusive education: Every child has the right to learn. UNICEF.
15. Yuldasheva, O. (2023). Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Toshkent.
16. Ainscow, M., Booth, T., & Dyson, A. (2006). Improving Schools, Developing Inclusion. London: Routledge.
17. Booth, T. & Ainscow, M. (2011). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol.
18. Florian, L. & Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.